



ESHITISHDA NUQSONI MAVJUD BOLALARNING SO‘ZLASHUV NUTQINI SHAKLLANTIRISH

Toyirova Jasmina Shermet qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Tel raqam: +998932344907

Emile: toyirovayasmina@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning so‘zlashuv nutqini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalangan holda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning so‘zlashuv nutqini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Nutqiy aloqa, og‘zaki nutq, kommunikatsiya, nutqiy muloqot, tanqidiy munosabat, korreksiya, verbal, nonverbal.

Аннотация

В статье рассматриваются особенности формирования устной речи у детей с нарушением слуха с использованием современных методов формирования устной речи у детей с нарушением слуха.

Ключевые слова: Речевое общение, устная речь, коммуникация, речевое общение, критическое отношение, коррекция, вербальное, невербальное.

Abstract

This article highlights the specific features of the formation of spoken speech in children with hearing impairments using modern methods for the formation of spoken speech in children with hearing impairments.

Keywords: Speech communication, oral speech, communication, speech communication, critical attitude, correction, verbal, nonverbal.



Kirish. Hozirda O‘zbekistonda yangicha fikrlaydigan, bo‘layotgan voqea hodisalarga erkin munosabat bildiradigan ijodiy va tanqidiy munosabat bildiradigan, ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan yoshlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Shu jumladan eshitishda nuqsoni mavjud bo‘lgan bolalar ham tanqidiy fikr yuritishga va dunyoqarashini kengaytirishga haqlidir¹. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni so‘zlashuv nutqini shakllantira olsak ular ham jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi va atrofda yuz berayotgan voqea hodisalarga o‘z fikrini bildirishadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga katta ahamiyat qaratmoqda, bu mavzu yuzasidan- 2021- yil 30-iyunda bo‘lib o‘tgan “Yoshlar forumidagi” ma‘ruzasida ham to‘xtalib o‘tgan edi².

Asosiy qism. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarda nutqiy aloqaga bo‘lgan ehtiyojning kamligi, nutqiy faoliyatiga bo‘lgan intilishning buzilganligi olimlar tomonidan aniqlangan. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ko‘pchiligida nutqiy aloqaning juda past ekanligini kuzatishimiz mumkin. Aksariyat bolalarda murakkab nutq ko‘lami umuman yo‘q. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning nutqini o‘stirish bo‘yicha ishlarni tashkil etishda o‘qituvchilar turli metodlar va usullar orqali eshitishda nuqsoni mavjud bolalarda muloqotga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishi mumkin.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning kattalar bilan aloqa qilish vositasi sifatida nutq funksiyasi insonning keyigi verbal va shaxs rivojlanish asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun nutqni shakllantirish bo‘yicha korreksion – tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlarning biri – qandaydir boshqa bir faoliyat bo‘yicha (predmetli, o‘yin va hokazo) nutqiy muloqat uchun sharoit yaratishdir. Kommunikativ so‘zlashuv barcha turlarini egallab olishning va shu bilan birga so‘zlarning sintagmatik munosabatlarini egallash nutq o‘stirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Boladagi nutqning qiyinchiliklarni bartaraf etishda individual korreksiyalash mashg‘ulotlari katta ahamiyatga ega. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni nutqga o‘rgatishda bunday

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi O‘RQ-641-sonli qonuni.

² Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2021- yil 30-iyunda bòlib òtgan "Yoshlar forumidagi" ma‘ruzasi



yondashishda ular nutqiy, shaxsiy rivojlanishida har tomonlama kamol toptirish hamda maktab ta'limiga tayyorlashda ancha yuqori darajalarga erishishlari mumkin. Eshitishda nuqsoni mavjud bolaning umumiy rivojlanish jarayoniga, ayniqsa, nutq va muloqot ko'nikmalariga bevosita salbiy ta'sir qiladi. So'zlashuv nutqining shakllanishi uchun eshitish vositalari, maxsus logopedik mashg'ulotlar va individual yondashuv talab etiladi va bunday bolalar bilan ishlashda an'anaviy ta'lim metodlaridan tashqari, sensor va motor rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi maxsus metodikalar zarur. Ushbu metodlarni asosini ko'rgazmali metodlar qamrab olishi kerak. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ko'rish orqali bilim berish mumkin. Eshitishda nuqsoni mavjud bo'lgan o'quvchilarning ko'p hollarda xotirasi kuchli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Eshitishda nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarni o'qitishda ko'proq suratlari bor kitoblardan foydalanishimiz kerak. Ushbu kitoblardan bolalar avval bilim oladilar so'ngra berilgan rasmlar orqali gaplar tuzishi yoki rasmlarda nimalar tasvirlanganini so'zlab berishi orqali ularda so'zlashuv nutqi shakllanib boradi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning so'zlashuv nutqini shakllantirish jarayonida maxsus pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribalarga tayangan holda, har bir bola uchun individual yondashuvni tanlash lozim. Shunga ko'ra aniq maqsadli mashg'ulotlar, eshitish va vizual yordamchi vositalardan foydalanish orqali nutqni rivojlantirish samaradorligi oshiriladi. Kelajakda ushbu sohada tadqiqotlarni kengaytirish va innovatsion usullarni joriy etish zarur.

Xulosa

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning o'quv faoliyatining asosiy muammolaridan biri og'zaki nutq orqali bilim berilganda ular anglay olmaydilar, mustaqil ishlash malakasiga ega bo'lmaydilar. Bunday sharoitda maxsus pedagogning o'rni va roli katta hisoblanadi. Ta'lim o'quvchilarni mustaqil ta'limga tayyorlaydi. Dars jarayonida ularning nutq shakllarini ham o'zlashtirib borishadi. Maktab yoshidagi eshitishda nuqsoni mavjud o'quvchilar dars jarayonlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bunday vaziyatda o'qituvchilar turli xil



ko'rgazmali vositalar orqali dars jarayonlarini tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi O'RQ-641-sonli qonuni.
2. Волкова, К.А. Методика обучения произношению детей с нарушением слуха [Текст] / К. А. Волкова, В. Л. Казанская, О. А. Денисова. – М., 2008. – 224 с.
3. В. М. Специальная психология: учебник для вузов / под ред. Л. М. Шипицына. М.: Юрайт, 2023.
4. Haqberdiyev Jamoliddin, Mannonova Nozima NUTQNING KECHIKISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI Zamonaviy Ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari